



“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA ADABIY TIL ILK  
TARMOQLARINING YUZAGA KELISHI HAQIDA

*Sanaqulov Usmon,*

*Samarqand davlat chet tillar instituti professori*

*Qurbanov Abdumalik,*

*Samarqand davlat universiteti o’qituvchisi*


**Kalit so’zlar:** urug’, qabila, qavm, klassifikatsiya, sheva, lahja, guruh, tarmoq.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, adabiy til ilk tarmoqlari masalasida Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asari tarixiy yozma manbalar orasida alohida qiymatga ega. Unda qadimgi davrlardagi etnonimlar, urug‘- qabilalar haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Qomusiy olim o‘z asarida o’sha davrlardagi turkiy urug‘- qabilalar, ularning tarqalgan o‘rinlari, birlashmalari (ittifoqlari) haqida aniq ma’lumotlar beradi. Mahmud Koshg‘ariy o‘scha davrdagi qatnov qiyin bo‘lgan sharoitda nihoyatda keng va katta hududlarni kezib o‘z asari uchun materiallar to‘plagan. Chunonchi, Rumdan Mochingacha, xususan, Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan hududlarning qishloq va shaharlarini kezib chiqqan. Ayniqsa, o‘scha davrlarda poytaxt mavqeiga ega bo‘lgan Samarqand, Buxoro, O‘zgand, Toshkent, Qashqar, Balasog‘un, Barsag‘on, Sayram kabi juda ko‘p markaz shaharlarda bo‘lib, u erda yashovchi aholi qatlamini va o‘ziga xos tili (lahjalari)ni ham izohlagan.

Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida ajdodlarimizning shajarasи haqida juda muhim ma’lumot mavjud. Unda 70 dan ziyod etnonimlar qayd etilgan. Xususan, unda qabilalar shajarasingning ro‘yhati o‘ziga xos tartibda berilgan. "Devonu lug‘otit turk" asarida avval **Turklar** haqida ma’lumot aytilgan. Olimning yozishicha, "**Turklar** aslida 20 qabiladir. Ular Nuh payg‘ambar fazandi Yofasning o‘g‘li **Turkka** borib taqaladilar... Har bir qabilaning

sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor. Men bulardan asosini, **она urug‘larini yozdim**, shaxobchalarini tashladim... Bular **bayanak (bajanak)**, **qifchaq**, **o‘g‘uz**, **yamak**, **boshg‘irt**, **basmil**, **qay**, **yabaqu**, **tatar**, **qirqiz**, **chigil**, **tuxsi**, **yag‘mo**, **ig‘raq**, **yaruq (jaruq)**, **jumul**, **uyg‘ur**, **tangut**, **xitoy (chin)**, **tavg‘aj (mochin)**"kabi katta qabilalardir... Bu qabilalarning **turar joylarini doira(ichi)da ko‘rsatdim**". Bu doira shakldagi chizma aslida turkiy qabilalar joylashgan geografik xarita devonning birinchi tomidagi "Turk qabilalari va ularning bayoni" nomli sarlavhasida qayd etilgan. Shuning uchun ushbu asarning tarjimonni professor S.Muttallibov aytganidek, bu xarita devonning birinchi tomidagi "Turk qabilalari va ularning bayoni" nomli sarlavhasida aytilgan fikrlardan keyin berilishi lozim bo‘lgan. Zero, bu fikrni arabcha nusxaning birinchi tom 32-sahifasidagi ma’lumot ham quvvatlaydi. Lekin bu xarita profesor S.Muttallibov qo‘lidagi nusxada ikkinchi tomingning 28-29-betlar orasida yopishtirilgan ekan<sup>3</sup>. Doira shakldagi xarita quyidagicha ilova etilgan:

<sup>3</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том.-Т.: "Фан", 1960, 64-б.



Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan so'ng devonda "Turklar tilining xususiyatlari" sarlavhasi ostida qisqacha bo'lsa-da, ajoyib fikrlar bayon qilingan. Olim avval shaharliklar bilan borish-kelishi bo'lgan, aniqrog'i ikki tilda so'zlashuvchilar, umuman, shaharlik turkiy qabilalar haqida ma'lumotlar beradi: "**sug'dak, kanyak (kanjak), arg'ular** ikki tilda so'zlashuvchilardir; **xotanlar, to'bo'tlar va tangutlarning ba'zilari** ikki tilda so'zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqli bordir. To'bo'tlarning tillari alohidadir, xo'tanliklarning ham ayrim tillari bor. To'butlar ham, xo'tanliklar ham turkchani yaxshi bilmaydilar. Bular bu yerlarga so'ng kelganlar... **jabarqaliqlar, ya'juj, ma'jujlarning uzoqda turishlari**, Mochin-Chin bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari bilinmaydi. **Mochin va chinliklarning alohida tillari** bor bo'lsa-da, shaharliklar turkchani yaxshi biladilar... balasog'unliklar sug'dcha va turkcha so'zlaydilar. Tiraz (Tolos) va Madinatulbayza shaharlarining xalqlari **sug'dcha, ham turkcha** so'zlaydilar. Ispijab/Ispijob (hozirgi Chimkent)dan to Balasog'ungacha bo'lgan

**arg'u** shaharlarining hammasida yashovchilarning tilida ham kamchilik bor. Qashqarda **qanjakcha** so'zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o'rtasida turuvchilar **hoqoniy turkchasi**da so'zlaydilar. Men bungacha so'zlaganlarim shahar xalqidir. Rumdan Mochingacha bo'lgan turk shaharlarining bo'yi besh mingdan sakkiz ming farsahgacha etadi. Bu shaharlar o'mni doirada (kartada) ko'rsatdim <sup>4</sup>. Olimning ma'lumotiga ko'ra, ba'zi turkiy qabilalar shaharliklar bilan aloqasi borligi tufayli, xususan, turklashgan qabilalar ikki tilda so'zlashganlar. Ular tilida turkiy va forsiy (sug'd) tiliga xos xususiyatlar mavjudligini qayd etgan.

Shundan so'ng, u sof turk tilda va unga yaqin bo'lgan tilda so'zlashuvchi turkiy qabilalar haqida ma'lumotlar beradi. Masalan, Turkiy tilning "Eng to'g'ri va aniq shakli faqat birgina shu tilni biladigan (birgina turkiy tilda so'zlashadigan-U.S.), forslar bilan aralashmaydigan va shaharlarga borish-kelish qiladigan odami bo'lмаган kishilarning tilidir". Masalan, "qirqiz, qipchoq, o'g'uz,

<sup>4</sup>. Махмуд Кошгариј. Девону луготит турк. 1-том, 65-66-бб.



tuxsi, yag'mo, chigil, ig'raq, yaruq tillari faqat turkchadir. Yamak va bashg'irt tillari bularga yaqindir. Shuningdek, qay, jabaqu (yabaqu), tatar, bismil qabilalarning har biri o'ziga xoslikka ega bo'lsa-da, turkchani yaxshi biladilar. Rumgacha cho'zilgan bulg'ar, suvar, bajanaklar tili ba'zi so'zlarning oxiri qisqartirilgan bir turkchadir... Tillarning yengili o'g'uzcha, eng to'g'risi, yaxshisi – yag'ma, tuxsi qabilalarning tili va shuningdek, Ila (Ili), Ertish (Irtish), Yamar, Etil vodiylaridan uyg'ur shaharlari gacha yashovchilar tilidir. Uyg'urlarning ham tillari turkchadir, lekin o'zlarini bir-birlari bilan so'zlashadigan boshqa bir tillari ham bor. Bularning ichida eng ochiq va ravon til – Hoqoniya o'lkasida yashovchilarining tilidir<sup>5</sup>. Bizningcha, Mahmud Koshg'ariy Hoqoniya o'lkasidagi aholisi tili, yoki turk tili deb, o'sha davrlarda endigina qabilalararo shakllanayotgan umumqabilalararo til, ilk adabiy tilining tarmoqlarini nazarda tutgan bo'lsa kerak.

Darhaqiqat, Mahmud Koshg'ariyning muhim bir ma'lumotlaridan biri shundan iboratki, o'sha davrlarda juda ko'p qabilalar muomalada o'z tillari (shevalari)dan tashqari, ularning qabilaviy munosabatlar sharoitida yuzaga kelayotgan yana boshlang'ich umumiyligi bir guruh-guruh til, ya'ni adabiy til tarmoqlari ham shakllanayotganligini aniq dalillar orqali talqin etgan. Masalan, **chigil gruppasi, o'g'uz guppasi, qipchoq guruppasi kabi**. Xuddi o'sha yuqorida qayd etilgan qabilalar tili (lahjalari) shakllanayotgan adabiy tilga asos bo'lishini bilgan. Shu bois, ularni nomma-nom sanab, ular haqida aniq ma'lumotlar bergan. Hatto, ayrimlari haqida devonning ba'zi sahifalari maxsus fikr bildirgan. Masalan, yuqorida qayd etilganidek, **turk** etnonimini izohlashda uni ba'zan turkiy qabilalarning umumlashgan nomi, ba'zan esa til (shevasi) jihatidan farqlanuvchi alohida qabila sifatida turkiy qabilalar qatorida sanab o'tadi. Shuningdek, devonda **chigil** etnonimi uch xil (Quyas, Barsaan, Tiroz shaharlari va Qashqarda bir

qancha qishloqlarda yashovchi) qabilalar nomini bildirgan. Makidoniyalik Iskandar (Aleksandr) davridan boshlab "chigiliy" deb yuritilganligi aytildi<sup>6</sup>. Mutafakkir Alisher Navoiy asarida ham Mahmud Koshg'ariyning fikrlari tasdiqlanadi. Navoiyning yozishicha, Iskandarning Movarounnahrga harbiy yurishi paytida ko'plab turkiy qabilalar qatori chigil va yag'mo qabilasi bir bo'lib qarshilik ko'rsatgan. Masalan, "**Chigil birla yag'modin aylab ubur, Nechukkim, chamandin sovobu dubur**",<sup>7</sup>

Manbalardan seziladiki, chigillar ham juda qadimiy turkiy qabilalardan bo'lgan, ular ayniqsa, **yag'mo, tuxsi** kabi qabilalar bilan yaqin hududlarda ittifoq bo'lib yashagan. Ularning tillarida ham birlik yuzaga kela boshlagan. Hatto, ular tili bilan Ila, Irtish, Yamar vodiylaridan, Yuqori Chingacha bo'lgan hududlarda yashovchi qabilalar tilida umumiylilik yuzaga kela boshlagan<sup>8</sup>. SHu bois, Mahmud Koshg'ariy o'g'uzlar Jayhundan yuqori Chingacha bo'lgan yerlardagilarning hammasini ham **chigil** deb ataydilar<sup>9</sup>, degan fikri aytgan bo'lsa ajab emas.

"Devonu lug'otit turk" asarining 89, 90, 91 sahifalarida **o'g'uz** etnonimi haqida maxsus ma'lumot berilgan. **O'g'uz etnonimi** avval turklarga xos bir qabilaning nomi deb izohlanadi. So'ng o'g'uz qabilasining katta bir tarmog'ini **turkman o'g'uzi**, aniqrog'i **turkman** qabilasi deb atab, ularga xos 22 urug'ning nomlarini va har bir urug'ning (mollariga bosilgan) o'ziga xos tamg'alarini shakllarini birma-bir ko'rsatib beradi. Demak, o'g'uz etnonimi keng va tor ma'nosida qo'llangan. Keng ma'noda turklarga xos o'g'uzlarning ko'plab qabilalari umumiyligi nomi, tor ma'nosida esa **turkman** o'g'uzi ma'nosida, bitta qabila tushunilgan. Devonda turkman o'g'uzlarining birinchisi va boshliqlari **qiniqlar** nomlanganligi aytilib, so'ng **qayig', bayun, iva (yiva), salg'ur, afshar, begtili, bo'kdo'z, bayot, yozg'ir, eymur, qorabuluk, igdar, urakir, to'tirqa,**

<sup>6</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 374-б.

<sup>7</sup>. Алишер Навоий. Хамса.-Т.: "Фан", 1960 (Шомурод котиб нусхасида 400 б.).

<sup>8</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 10-б.

<sup>9</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 374-б.

<sup>5</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 65-66-бб.



**ulayundlug‘, to‘gar, bajanak, juvoldor, japid, jaruqluq** kabi urug‘lar tartib raqamda tamg‘alari bilan ketma-ket berilgan<sup>10</sup>.

Devonda Mahmud Koshg‘ariy urug‘-qabilalar tilining umumlashib boriayotganligini va ular ilk adabiy til tarmoqlari sifati shakllanayotganligini juda yaxshi sezgan. Shu bois ularni guruhlarga bo‘lib, klassifikatsiya qilgan. Olim bergen ma’lumotlardan umum qabilaviy tilning shakllanishida quyidagi uch guruh qabila va urug‘lar lahjalari sezilarli bo‘lgan :

I guruh qabilalarga sug‘dak, kanjak, arg‘u, tubut, tangut, xutan uyg‘ur kabilar kiritilgan. Ular faqat shaharlarda yashashgan.... Ularning o‘z tillari (shevalari), yozuvlari ham bo‘lgan. Masalan, uyg‘urlarning tili turkcha bo‘lsa-da, o‘zaro so‘zlashuvda shevasi (o‘z tili) ni ham qo‘llaganlar. Bu guruhdagi barcha qabilalar lahjasи shakllanayotgan adabiy tilning shahar tipi sifatida qaralib, ular so‘zlashuvida o‘z tillari (shevalari)ning ta’siri ham sezilib turgan.

II guruhdagi qabilalarga jumul, qay, yabaqu, totor, basmil kabilar kiritilgan. Bu qibilalar asosan dashtlarda yashaganlar. Ular shevalari o‘ziga xos turkcha bo‘lsa-da, lekin umumiylig sezilarli bo‘lgan. Shu bois ular lahjasи shakllanayotgan II guruh adabiy til tarmog‘ini tashkil etgan.

III guruhdagi qabilalarga qirg‘iz, qipchoq, o‘g‘uz, tuxsi, yag‘mo, chigil, ig‘roq, yaruq, qarluq, qangli kabilar kiritilgan. Ular faqat turkchada so‘zlashganlar, yamak va boshg‘irtlar ham bularga yaqin bo‘lgan. Shu kabi Rumgacha cho‘zilgan bulg‘ar, suvar (shumir-U.S.) bajanaklar tili turkcha bo‘lib, ularda ayrim so‘zlar oxiri qisqartirib qo‘llanilgan. Uchinchi guruhdagi qabilalar ham sahro (dasht)larda, shuningdek, qisman shaharlarda istiqomat qilganlar. Olimning ana shu tarzdagi klassifikatsiyasidan so‘ng bu uch guruh urug‘-qabilalar tilining farqli va umumiylig tomonlari misollar asosida tahlil ham etgan. Buni biz devondagi “Tilda va

lahjalarda bo‘lgan farqlar haqida” sarlavhali sahifalarida kuzatamiz<sup>11</sup>.

Aslida, Mahmud Koshg‘ariy tomonidan fikr yuritilgan umumturkiy til o‘sha davrlardayoq shakllangan eski o‘zbek adabiy tilining ilk ko‘rinishidir. Chunki olim sanab o‘tgan qabilalar va ularning lahjalari, ayniqsa, **chigil gruppasi, o‘g‘uz guppasi, qipchoq guruppasi kabi** yuzaga kelayotgan boshlang‘ich umumiylar bir guruhsiga tili, ya’ni adabiy til tarmoqlari o‘zbek xalqining dialekt va shevalariga deyarli mos keladi.

Mahmud Koshg‘ariy tomonidan qabila, qavm, urug‘ sifatida yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar bilan birlikda, yana bir qancha etnik nomlarni devonning ko‘pgina sahifalaridagi so‘zlarining ba’zi izohlarida qayta-qayta tilga oladi. Bular quyidagilar: chigil, o‘g‘uz, turk, yag‘mo, tuxsi, sug‘dak (sug‘d), arg‘u, xo‘tan, tubut, tangut, bulg‘or, suvar, tajik, arab, xitoy (chin, mosin), qiniq, qayig‘, bayundur, ifa (iva, yiva), ezgish (ekzish) och/o‘ch/uch salg‘ur (solg‘ur), afshar, begtili, bukduz (buktuz), bayat (boyot), yozg‘ir, aymur (eymur), aramut, qorabuluq, olquabuluq, igdar, uragir (urakir-yuragir), yamak, tutirqa (to‘tirqa), ulayndlug‘ (ulayundlug‘), tug‘ar (to‘gar), elka, juvaldor, japid (japni), jarluqlug‘ (jarlug‘luq), qirqiz, qarluq, chik, bulaq, kuchat, kujo, xalach, tot(tat), tavq‘ach, uyg‘ur, turkman, totor, bulaq, charuq, od (o‘z), tarbin, tot, ug‘roq, sug‘dak, banak, bayanak (bajanak, bajang), yabaqu, ug‘roq, qoy, jumul, basmil, o‘zuz, yamoq qanjak kabilar shular jumlasidandir. Umuman, juda ko‘p etnik nomlar haqida devonning har erida yo‘l-yo‘lakay tilga olinib, qisqacha izohlar ham berilgan, ba’zilari esa so‘zlarining lisoniy tahlili jarayonida qayta-qayta tilga olingan. (1, 2, 3-tomida).

**Qipchoq (qifchaq)** - turkiy qabila. Etil-qipchoq eli, Qashg‘ar yaqinidagi joy nomi (1-t.103, 440); **Yag‘mo‘, tuxsi, chigillar** Ila daryosi bo‘yida yashaganlar (1-t.118, 387); **Ezgish (ekzish)** O‘zganda turuvchi turkiy qabila (1-t.122); **Och (o‘ch, uch)** qabila (1-t.129); tubun-uch qabilasining so‘zi

<sup>10</sup>. Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 89-91-66.

<sup>11</sup>. Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том, 66-69-66.



(1-t. 380); CHag'la uch qabilasining yaylovi (1-t.405). **Elka** (elka buloq) turk qabilasining biri (1-t.149); **Tatar**-turkiy xalqlarning bir urug'i (1-t.156, 389); Aramut-uyg'ular yaqinida turuvchi bir turk qabilasi (1-t. 157); **Yabaqu**-qabila. Bujrach ularning begi (1-t.161); **Tangut**-Chin viloyatda yashovchi qabila (1-t.294); **Yamak** - qipchoqlarning bir toifasi Irtish yoqasida yashaydilar (1-t. 314); **To‘bo‘t** - turk diyorida yashochi bir qavm. Mushk olinadigan kiyik shularning yerida bo‘ladi. Bular bir jinoyat qilib Yamandan qochib, dengiz yo‘li bilan Chinga o‘rnashib qolgan. Sobit degan kishining avlodidir. U kishi shu yerni yoqtirib, joylashib qolgan va avlodni ko‘paygan. Avlodlari ko‘pligidan turklar yeridan 1500 farsax yerni olganlar. Sharq tomoni Chin, g‘arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg‘uriston eli, janub tomoni esa Hind dengizidir. Ularning tillarida arablarning ta’siri bor. Chunki ular onani uma, otani aba deydilar (1-t.337); **Kuchat** - Xorazimda turuvchi turklar (1-t. 338); **Arg‘u**-qabila (1-t. 341); **Kujo** - uyg‘ular yaqinida yashovchi bir urug‘. Bo‘ko‘ qal’asi kujo bilan uyg‘ular o‘rtasida bo‘lgan (1-t. 342); **Bulaq** - bir turk qabilasi. Ularni qipchoqlar asir qilgan edilar, so‘ngra xudo qutqardi va ular alka bulaq deb ataladigan bo‘ldilar (1-t. 360); **Charuq-barchuq** ismli Afrasiyob shahrida turuvchi bir toifa (1-t. 362); **Tajik** nomli qavm (1-t. 368);

**Chumul (jumul)** - turklarning bir qavmi (izoh: Jumullar haqida devonda ma'lumot juda oz. Ular ko‘proq sahroda yashar edilar. Ularning tillari o‘zlariga xos edi. Basmil qabilasi bilan birlikda qilingan janglari haqida to‘rtlik parchalaridagina ular nomi qabila tarzida eslatiladi (Izoh: 1-t. 375). Masalan, bir she’riy parchaning mazmunini ilova qilamiz: Yabaqu jangiga hoqonni yordamga chaqirib aytadi. Bizning odamlar podshoga qarshilik qilmaslik uchun muohada yozadilar. Hozir basmil va **jumul** qabilalari biz bilan urushmoqqa yig‘ildilar (1-t.424.); **Kanjoq** – qabila (1-t.405); **Tuxsi** - turklarning bir toifasi, Qiyosda turadilar, ularni tuxsi chigil deydilar (1-t.399). Saxsin - bulg‘orlar yaqinidagi bir shahar. U **Suvordir**,

ya’ni u shahar suvor qabilasiga tegishli ma’nosida bo‘lsa kerak (1-t.410); **Tavg‘ach** - uyg‘ur. U “tat”dir (bu erda biroz aniqsizlik bor-S.M.). Ular Chin, ya’ni Tavg‘achda yashaydilar. Har bir katta narsaga ham tavg‘ach azi deydilar. Tavg‘ach Mochin mamlakatining nomi ham. Bu mamlakat Chindan to‘rt oylik yo‘l uzoqdir. Chin aslida uchtadir: 1). Yuqori Chin-bu Sharqda bo‘lib, bunga Tavg‘ach deyiladi. 2). O‘rtachi Chin-buni Xitoy deyiladi. 3). Quyi Chin-buni Barxan deyiladi va u Qashqardadir. Lekin hozir (Mahmud Koshg‘ariy davrida-U.S.) Tavg‘ach ni Mochin, Xitoyni Chin deb yuritiladi. Tat - tavg‘ach yoki uyg‘urdir. Birinchi so‘z tat-forsi, ikkinchi so‘z tavg‘ach-turk o‘rnida qo‘llaniladi. Tat tavg‘ach so‘zi turk va fors demakdir, turklashgan forsdir-U.S. (1-t.423), Sumlim tat - turkcha bilmaydigan fors. Umuman, sumlim so‘zi turkchani bilmaydigan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi (1-t.448); **Qirqiz**-bir turk qabilasi, qirg‘iz (1-t.426); **Ug‘roq** - bir qabila nomi. Ug‘roqlarning odamlari g‘ayratli, eydigan ovqatlari uloqdir (1-t.435); **Sug‘dak** – Bolasog‘unga joylashgan bir qavm, Ular Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi sug‘ddan bo‘lib, keyin turklashib ketgan qavmdir (1-t.437); **Qarluq** - turklarning bir guruhi. Ular ko‘chmanchi bo‘lib, o‘g‘uzlardan boshqa (farqlanuvchi-U.S.), ular ham tukmandir (1-t.439; Qirnnak-joriya, cho‘ri). **Ug‘roq**, **yabaqu**, **qoy**, **jumul**, **basmil**, **o‘g‘uz**, **yamoq** va **qipchoqlar** so‘zi (1-t.439); **Kenjak**-turklarning bir toifasi (1-t.444); **Basmil** - turk urug‘laridan biri (1-t.445); **Bayanak (bajanak)** - Rumga yaqin turuvchi turkiy qabilalardan biri. Ular o‘g‘uzlarning bir toifsi sifatida “bajang” ham deydilar (1-t.450); **O‘g‘uz** - Rumdan Chin yaqiniga qadar yerlarda ham tarqalgan turkiy qabila (1-t.479). Bunday izohlar devonning 2 va 3-tomlarida ham mavjud. Mahmud Koshg‘ariy 1-tomda qabilalar haqida maxsus to‘xtalganligi sababli biz faqat shu kitobdag‘i (1-tomdag‘i) ma’lumotlarni havola etdik.

Xullas, devondagi izohlardan ma’lum bo‘lishicha, X-XI asrlarda turk, chigil, o‘g‘uz va qipchoq tiliga xos lahjalarning nufuzi



yuqori turgan. Mahmud Koshg'ariy o'sha davrdagi barcha urug'-qabilalar lahjalarini, asosan ana shu nufuzli qabilalar tillari orasidagi yaqinlik va o'xshashliklarni qiyoslagan. Shuning uchun devonda qyoslash jarayonida ularning birini o'g'uz, ikkinchisini chigil yoki turk guruhiga xos deb ataydi. Ikki

tilning biriga xos deganda esa, asosan, o'g'uz yoki turkni ko'zda tutgan. Chunki olim chigilni turk, qipchoqni o'g'uz tarmog'i deb ham qaragan. Shu nuqtai nazardan qaralganda devondagi til materiallari shu asosda tahlil etilgan.

### Adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 1-tom.-T.: "Fan", 1960.-B.499.
2. Alisher Navoiy. Xamsa.-T.: "Fan", 1960 (Shomurod kotib nusxasida).-B 400.

**Санакулов У., Курбонов А. О появлении первых литературных языковых ветвей в "Дивану лугатит турк".** В статье обосновывается, что выдающийся ученый XI века Махмуд Кашигари, описывающий в своем произведении языки тюркских племен, выделяет в них схожие и специфические черты, представляет попытку их классификации. Отмечается, что входящие в одну группу огузские и кипчакские наречия, связаны многоуровнево. В его работе также осуществляется первая попытка интерпретации важной информации о формировании литературных языковых связей (сетей). В статье подчеркивается, что первый литературный язык возник на основе одной из ветвей староузбекского языка.

**Sanakulov U., Qurbanov A. On primary literary linguistic networks in "Divanu Lugatit Turk".** The article proves that Makhmud Kashgari, eminent scholar of XI century, describing languages of Turkik tribes reveals their common and specific points, and tries to classify them. It is underlined that Oghuz and Kipchak dialects being from the same linguistic group are mutually related at different levels. Makhmud Kashgari also undertakes an attempt to analyze the important information on the forming of literary linguistic networks. The present article emphasizes the fact that the first literary language appeared from one of the branches of the old Uzbek.

---